



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 369 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlar.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	347
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	



QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARINI AHOLI TOMONIDAN XARID QILISH VA KOMPENSATSIYA AJRATISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH HAMDA TIZIMLAR INTEGRASIYASI ISTIQBOLLARI

Ochilov Abdujabbor Akramovich

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi
Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi bo'lim boshlig'i
ORCID: 0009-0008-3057-6066

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini aholiga o'rnatish ya'ni masofadan turib xarid qilish tizimini raqamlashtirish va tizimlar bilan integratsiyasi istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: quyosh elektr stansiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari, yagona elektron platforma, kompensatsiya, foizsiz bo'lib bo'lib to'lash, "Quyoshli xonadon" dasturi.

Abstract: This article provides proposals and recommendations on digitalization and prospects for integrating a system for remote procurement of renewable energy installations for the population in our country.

Key words: solar power plant, renewable energy devices, unified electronic platform, compensation, interest-free installment payments, "Sunny Household" program.

Аннотация: В данной статье даны предложения и рекомендации по цифровизации и перспективам интеграции системы дистанционной закупки установок возобновляемых источников энергии населению в нашей стране.

Ключевые слова: солнечная электростанция, устройства возобновляемых источников энергии, единая электронная платформа, компенсация, беспроцентные рассрочки, программа "Солнечный дом".

KIRISH

Mamlakatimizda "yashil" energetika bo'yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganning o'zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo'naltirishimiz zarur.

Sh.Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020-yildagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son va 04.08.2020-yildagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4797-son qarorlari mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan.

Energetika sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, axborot tizimini, internet-texnologiyalarni joriy etish asosida rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i energetika tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM)lardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

- ekologik toza energiya: QTEM – quyosh, shamol, biomassa, geotermal va gidroenergiya manbalari atmosferaga zararli chiqindilar chiqarmaydi;



- iqtisodiy samaradorlik: Texnologiyalar rivojlangani sari ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi;
- energetik mustaqillik: QTEMdan foydalanish import qilinadigan yoqilg'ilarga bo'lgan bog'liqlikni kamaytiradi.

QTEM qurilmalarini xarid qilish jarayonlari va tizimlar integratsiyasi istiqbollari bugungi kunda jahon miqyosida katta e'tibor qaratilayotgan sohalaridan biridir. QTEM qurilmalarini xarid qilish jarayonini raqamlashtirish va ularni energetik tizimlarga integratsiya qilish, ushbu sohani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, aholiga QTEM qurilmalarini xarid qilish va o'rnatishda bir qator imkoniyatlar va rag'batlantirish tizimlaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratilishi lozim va hozirgi kunda barcha jarayonlarni raqamlashtirish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha xorijlik va mahalliy olimlar va tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan. Shuningdek, bu sohaga ko'plab mutaxassislar o'z hissalarini qo'shgan.

Fransiyalik fizik va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari mutaxassisi Jan-Mark Janno qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining rivojlanishini kuzatib, ularning samaradorligi va ishonchligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga hissa qo'shgan.

Amerikalik iqtisodchi va energiya siyosati mutaxassisi Elizabet Murening fikricha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning iqtisodiy foydalarini ta'kidlab, buning ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishga yordam berishini ta'kidlagan bo'lsa, ya'ni bir amerikalik muhandis va energiya tizimlari mutaxassisi Stenford universiteti professori Mark Z. Yakobson qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning texnik imkoniyatlarini o'rgangan va buning amalga oshirilishi mumkinligini isbotlagan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Fizika-texnika institutida faoliyat olib boruvchi Sherzod Ahmedov quyosh energiyasini ishlatish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida quyosh panellarini yaratish bo'yicha loyihalarda ishtirok etib, bu sohadagi mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo'shib kelmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishda aholi tomonidan QTEM qurilmalarini xarid qilish imkoniyatlarini yaratish va ushbu jarayonlarni raqamlashtirish, shuningdek, ushbu sohada aholiga davlat tomonidan imtiyozlar qo'llanishi va iste'molidan ortiqcha bo'lgan elektr energiyasini davlatga sotishi bo'yicha tahlillar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, vazirlik huzuridagi Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi va Soliq qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda quyosh energetikasidan foydalanishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Muqobil energiya, jumladan quyosh energiyasidan foydalanish rivojlantirish bo'yicha Respublika Prezidentining bir qator qaror farmon va Hukumat qarorlarining qabul qilinishi, dunyoda eng katta va noyob quyosh pechining faoliyat ko'rsatayotganligi va yirik quyosh elektr stansiyalarni barpo etish yo'lida dastlabki dadil qadamlar qo'yilganligi hamda yangidan yangi quyosh va shamol elektr stansiyalarning barpo etilayotganligi buning dalilidir.

QTEM qurilmalarini xarid qilish jarayonini raqamlashtirish aholi uchun bir qator qulayliklarni yaratadi. Xususan, raqamli platformalar xarid qilish jarayonini optimallashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi hamda shaffofligini ta'minlaydi, natijada ishtirokchilarning barcha ma'lumotlariga, shartnomalarga va hujjatlarga onlayn kirish imkoniyati yaratiladi va xarajatlarni tejaydi. Shuningdek, raqamli platformalar QTEM qurilmalari ish faoliyatini kuzatib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish va energiya iste'molini boshqarish imkoniyatini beradi hamda QTEM sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda yordam beradi.

QTEM manbalarini integratsiyalash, ya'ni turli energiya tizimlarini bir-biriga moslashtirish, samaradorlikni oshirish va barqaror energiya ta'minotini ta'minlash uchun zarurdir. Tizimlar integratsiyasi yangi texnologiyalarni qo'llash va QTEM qurilmalarini yanada samarali ishlatishga imkon beradi.

QTEM – quyosh panellari, shamol generatorlari, biogaz uskunalari va energiya tejamkor texnologiyalarini xarid qilish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar juda muhim hisoblanadi. Ushbu moliyalashtirish mexanizmlari QTEMLardan keng foydalanishga, energiya mustaqilligiga erishishga va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga xizmat qiladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-220-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 05.10.2022-yildagi "Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish



xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 568-son qaroriga asosan aholi tomonidan QTEM qurilmalarini xarid qilish hamda kompensatsiyalardan foydalanishi bo'yicha Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona elektron platforma (Platforma) ishlab chiqilgan.


Ushbu Platforma (<https://energymarket.uz>) orqali iste'molchilar quyosh va shamol elektr stansiyalari va quyosh suv isitgichlarini 3 yilgacha foizsiz bo'lib bo'lib to'lash sharti bilan xarid qilishi mumkin. Shuningdek, QTEM qurilmalarini xarid qilish narxidan kompensatsiya miqdori chegirilgan holda to'liq to'lagan iste'molchi bo'yicha kompensatsiya mablag'lari o'rnatuvchi tashkilotga budget mablag'lari hisobidan Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi tomonidan qoplanadi¹.

Platformaning maqsadi muqobil energiya manbalarini amalga oshirishning shaffof bozor tizimini yaratish orqali uy xo'jaliklarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etishdan iborat bo'lib, unda mijoz va sotuvchi o'rtasida ishonchli munosabatlar orqali bitimlar tuzish mumkin (1-rasm).



Rasm. 1. Platformada QTEM qurilmalarilarni bo'lib-bo'lib to'lash bilan xarid qilish sxemasi.

O'zbekiston fuqarolari uchun QTEM qurilmalarini qulay bo'lgan sotib olish tizimini yaratish, yani bo'lib-bo'lib va to'liq to'lash asosida (kompensatsiya summasi chegirilgan holda, 2-rasmda keltirilgan) bajariladi (2-rasm).




Rasm. 2. Platformada QTEM qurilmalarilarni kompensatsiya bilan xarid qilish sxemasi.

¹ Jismoniy shaxslarga shamol yoki quyosh elektr stansiyasini o'rnatganlik uchun, agar ularning quvvati 0,5 kVt.dan 1 kVt.gacha bo'lsa – BHMning 7 barobari, 1 kVt.dan 1,5 kVt.gacha bo'lsa – BHMning 10 barobari, 1 kVt.dan 2 kVt.gacha bo'lsa – BHMning 15 barobari, 2kVt. va undan yuqori bo'lsa – BHMning 20 barobari miqdorida, suv isitish hajmi 100 litr va 200 litr bo'lgan quyosh suv isitish qurilmalari uchun tegishli – BHMning 5 va 7 barobari miqdorida kompensatsiya beriladi.



Platformaning qulay tomoni, aholi buning uchun biron-bir idoraga borib yurmaydi, ya'ni hamma hujjatlar platformaning o'zida elektron rasmiylashtiriladi.

Platforma orqali 2025-yil 1-yanvar holatiga kelib tushgan arizalar asosida jismoniy shaxslar bilan ta'minotchi korxonalar o'rtasida 192,6 mlrd.so'mlik 6 026 ta shartnoma imzolangan va 1 524 ta xonadonga o'rnatilgan QTEM qurilmalari (6,6 MVtlk - Quyosh elektr stansiyalari va 6 600 litrlik - Quyosh suv isitkichlari) xarid xarajatlari uchun 19,1 mlrd. so'm kompensatsiya mablag'lari ajratilgan (3-rasm).



Rasm. 3. Platforma orqali xarid qilingan QTEM qurilmalar.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 517-son "“Yashil” iste'mol krediti bo'yicha foiz to'lovlarining bir qismini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga “yashil” iste'mol kreditlari ajratilishini keng joriy etish va kreditlar bo'yicha foizlarning bir qismiga kompensatsiyalar ajratish yanada kengaytirildi.

Xususan, quyosh fotoelektr hamda shamol elektr stansiyalarini va quyosh suv isitkichlarini, mikro hamda kichik gidroelektr stansiyalari, biogaz ishlab chiqaruvchi uskunalari, biogaz qurilmalari va issiqlik nasoslarini o'rnatish, shuningdek, qurilish izolyatsiya materiallari, maishiy energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar hamda qozonlarni sotib olish maqsadlari uchun tijorat banklari tomonidan aholiga milliy valyutada “yashil” iste'mol kreditlari berilishi va Energetika vazirligi huzuridagi Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi tomonidan qiymati BHMning 500 baravaridan (187,5 mln so'm) oshmagan “yashil” iste'mol kreditlari bo'yicha 5 foizli banddan ko'p bo'lmagan qismini qoplab berish uchun 3 yil muddatgacha kompensatsiya ajratilishi belgilangan.

Bugungi kunda, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan “yashil” iste'mol kreditlari bo'yicha foizlarning bir qismiga kompensatsiyalarni to'lab berish uchun Jamg'arma 12 ta (“O'zmilliybank” AJ, AT “Xalq banki”, “O'zsanoatqurilishbank” ATB, “Asakabank” AJ, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB, “Mikrokreditbank” ATB, “Kapitalbank” ATB, “Agrobank” ATB, “Trastbank” XAB, “InfinBank” AJ, AT “AloqaBank”, ATB “Turonbank”) tijorat banklari bilan bosh bitimlar imzolagan.

Energetika sohasida raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olishi hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-133-son qarorida Energetika vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi va Markaziy bank bilan birgalikda 2025-yil 1-mayga qadar Energetika vazirligi huzuridagi Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasining “Yashil imtiyoz” axborot tizimini hamkor tijorat banklarining tegishli axborot dasturlari bilan integratsiya qilish vazifalari berilgan.

Bugungi kunda, Jamg'arma tomonidan tijorat banklariga o'tkazib beriladigan kompensatsiya mablag'larni qoplash berishni to'liq raqamlashgan holda amalga oshirish uchun “Yashil imtiyoz” axborot tizimi ishga tushirildi hamda “Agrobank” ATB, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB, AT “Xalq banki” va “Mikrokreditbank” ATB bilan inegratsiya qilish ishlari boshlangan (4-rasm).



Rasm. 4. "Yashil imtiyoz" axborot tizimi faoliyati.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, quyosh panellari o'rnatgan aholini rag'batlantirish maqsadida subsidiyalar ajratish uchun ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo'yicha "Quyoshli xonadon" tizimini yo'lga qo'yildi. 2024-yilda **10 826** nafar jismoniy shaxs ushbu dasturdan foydalanib, elektr tarmoqlariga o'tkazilgan quyosh energiyasi uchun **12 mlrd 182 mln so'm (12 million 182 ming 090 kVt/soat)** davlat budjetidan subsidiya oldi.²

Ma'lumot uchun: Subsidiyani "Soliq" mobil ilovasining "Keshbek va imtiyozlar" xizmatining "Quyoshli xonadon" bo'limidagi "Kartaga pul o'tkazish" oynasi orqali bank kartasiga o'tkazib olish mumkin (5-rasm).



Rasm. 5. "Quyoshli xonadon" dasturi orqali taqdim etiladigan imtiyoz.

² 2023-yil 1-apreldan "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida xonadoniga quyosh elektr stansiyani o'rnatgan jismoniy shaxslarga quyosh paneli orqali ishlab chiqarilgan va yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt soati uchun 1000 so'mdan subsidiya ajratilishi belgilangan (<https://lex.uz/docs/-6385716>).



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 421- va 436-moddalarida QTEM o'rnatish uchun soliq imtiyozlari qo'llash nazarda tutilgan. Unga ko'ra quyidagi shaxslar yer va mol-mulk solig'i summasini kamaytirishi mumkin: uy-joy fondining ko'chmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan QTEMdan foydalanuvchilar – o'rnatilgan oydan boshlab 3 yil davomida;

quyosh panellari quvvatidan 25%dan kam bo'lmagan elektr energiyasini to'plash tizimiga ega quyosh panellarini o'rnatilganda – bu panellar foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 10 yil davomida.

Soliq summasi yer solig'i bo'yicha 1 BHMdan va mol-mulk solig'i bo'yicha 2 BHMdan oshmaydigan summaga kamaytiriladi.

Yer solig'i bo'yicha imtiyoz faqat 1 marta, uy-joy fondi ko'chmas mulk obyektlari bilan band bo'lgan bitta yer uchastkasiga nisbatan va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz faqat 1 marta 1 ta uy-joy fondi ko'chmas mulk obyektiga nisbatan elektr ta'minoti tashkiloti tomonidan berilgan ma'lumotnomaga asosan taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq QTEM qurilmalari o'rnatilgan taqdirda qo'llaniladi.

Aholining aksariyat qismi Platforma orqali qurilmalarni o'rnatgandan keyin Soliq.uz mobil ilovasi orqali "Quyoshli xonadon" dasturida yaratilgan imkoniyatlar to'g'risida ma'lumotlarga to'liq ega emas.

Shu sababli, aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida Platformani "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning axborot tizimlariga (ASKUE, CAS va boshqalar) va Soliq.uz mobil ilovasi bilan integratsiya qilishni taqozo etmoqda va integratsiya qilish orqali bir qator qulayliklar va imkoniyatlarni yaratish;

aholi xonadoniga quyosh elektr stansiya o'rnatilgandan so'ng avtomatik ravishda "Quyoshli xonadon" dasturiga ulanish va taqdim etilayotgan subsidiyadan o'z vaqtida foydalanish;

quyosh elektr stansiya o'rnatilgan sanani aniqlash va o'z navbatida platforma orqali imzolangan shartnoma bo'yicha taqdim etiladigan kompensatsiya mablag'laridan maqsadsiz foydalanishni oldini olish;

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJning tuman va shahar filiallarida faoliyat yurituvchi xodimlar tomonidan qurilma o'rnatilganligini (platformaga yuklangan rasm va videolar orqali) onlayn tasdiqlash imkonini yaratib berish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

QTEM qurilmalarini xarid qilish jarayonini raqamlashtirish va tizimlar integratsiyasi O'zbekistonning energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy o'sishga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu tarzda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va tizimlarni integratsiyalash bo'icha jarayonlar kelajakda muhim ahamiyat kasb etadi va barqaror energiya ta'minoti uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Bu energiya tizimlarining samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirish orqali QTEM yanada barqaror va ishonchli manbaga aylanadi.

Aholi tomonidan QTEM qurilmalarini xarid qilish, xarid qilish xarajatlari bir qismiga davlat tomonidan kompensatsiya berish, tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish jarayonlarini raqamlashtirish sohasida quyidagilar tavsiya etiladi:

- aholiga beriladigan kompensatsiyalar, subsidiyalar va tijorat banklaridan ajratiladigan imtiyozli kreditlar haqidagi ma'lumotlarni maxsus veb-saytlar yoki mobil ilovalar orqali taqdim etish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun qo'llaniladigan imtiyozlar va subsidiyalarni olish hamda QTEM qurilmalarini xarid qilish uchun aholi barcha hujjatlarni bir platformadan topshirish imkoniyatini yaratish;
- QTEM qurilmalarini xarid qilish uchun onlayn kreditlash platformalari orqali imtiyozli kreditlarni olish jarayonini soddalashtirish;
- tizimlarning integratsiyasi va jarayonlarni avtomatlashtirish orqali turli sohalar o'rtasidagi ma'lumot almashishni ta'minlash va mavjud platformalarni bir-biriga bog'lash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi // <http://lex.uz/ru/docs/4674902>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi "Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-220-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6189000>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/-4800657>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2020 yildagi PQ-4797-son "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/-3107036>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi PQ-57-son "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/-6385716>.



6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2025 yildagi PQ-133-son "Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olshi hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7455627>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.10.2022 yildagi 568-son "Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6225945>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "yashil" energetika sohasidagi yirik qo'shma loyihalarni ishga tushirishga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2023-yil 27-dekabr // <https://minenergy.uz/uz/news/view/3529>
9. K.Shodimetov. "Muqobil yenergiya manbalaridan foydalanish va uning iqtisodiy istiqbollari" amaliy qo'llanma. Toshkent. – "Ilm ziyo" – 2014.
10. Internet resurslar
11. <https://www.lex.uz/>
12. <https://president.uz/>
13. <https://minenergy.uz/>
14. <https://gov.uz/oz/soliq>
15. <https://iesf.uz/>
16. <https://energymarket.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
